

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA INSON RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish kafedrasi assistenti*

*Umirzaqova Shaxnoza Akmalovna, Abdulkarimov Azizbek Sherali o'g'li*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada sanoat tarmoqlarida inson kapitalidan samarali foydalanish yo'llari va inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillari o'z navbatida iqtisodiy omillar sanoat korxonalarining xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati natijalarining bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lashi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, inson resursi, samaradorlik, sanoat tarmoqlari, taraqqiyoti indeksi.

**Kirish.** Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning 2019 yil ma'lumotlariga ko'ra inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha hisobotida O'zbekiston 189 ta davlat ichida 0,710 indeks qiymatiga ega bo'lib, 108 o'rinni egaladi. Unda kutilayotgan umr davomiyligi 71,6 yil, kutilayotgan talim olish davri 12,0 yil, o'rtacha talim olishning davomiyligi 11,5 yil, aholi jon boshiga yalpi milliy daromad 6462 AQSh dollarini tashkil etdi. Insonni rivojlanish indeksining qiymati 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi, bu inson potensialining rivojlanish darajasini aks ettiradi va 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, rivojlanish shunchalik yuqori bo'ladi.

Mamlakatning sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun va uni barqarorlashtirish hamda modernizasiya qilish shartlaridan biri ishlab chiqarishni zaruriy malaka, ko'nikma va fazilatlarga ega bo'lgan inson resurslari bilan ta'minlash, ya'ni «inson kapitali»dir.

Sanoat tarmoqlarida inson kapitalining darajasini aniqlash usuli inson kapitalining hayotiyligi integral yondashuv, shu jumladan bazaviy investisiyalarni baholash sifatida inson kapitali va inson kapitali rivojlanishida va xodimlarning ishlash ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda sanoat tarmoqlarida inson kapitalining qiymatini hisoblash asosida iinson kapitaliga sarflanadigan xarajatalar miqdori va inson kapitali samaradorligi oshirish yo'llarini aniqlash eng dolzarb muommalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat tarmoqlaridagi "inson kapitali" tushunchasi madaniy, ijtimoiy, jismoniy, ma'naviy, maxsus xodimning intellektual va kasbiy fazilatlarining foydalanish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma, amaliy ko'nikmalar mashg'ulotlari juda katta ahamiyat kasb etadi.

Sanoat tarmoqlarida iqtisodiy o'sish, sohadagi daromadlar taqsimoti, ishlab chiqarish darajasi va sifati, ijtimoiy soha kabi qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bevosita inson kapitali bilan bog'liklik muommalarini hal qilishni taqzoa etmoqda. Shu sababli iqtisodiyotning innovasion rivojlanish sharoitida inson resurslarining hal qiluvchi roli, ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi yangi

## 2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

munosabatlar, ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bu kabi muhim masalalarни hal qilishda sanoat tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlar yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va inson resurslaridan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investisiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”[1] deb takidlab o‘tdi.

Inson resurslarining kompetensiyalari va qobiliyatlarini, sanoat tarmoqlarining intellektual kapitalini eng muhim omillar sifatida ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalarni o‘rganishni taqozo etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bandligini ta’minalash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”dagi 2018 yil 14 iyuldagи PQ-3856-son, “Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g’risida”dagi 2020 yil 1 maydagи PQ-4700-son qarorilari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat tarmoqlarida inson kapitalining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish yo‘llari, sohada inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi muammolari bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari turli yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, mazkur muammoning ilmiy –nazariy va metodologik yechimlari bo‘yicha A.Smit “Ishlab chiqarish hajmining ortishi eng avvalo xodimning salohiyatiga bog’lik, keyingi navbatda esa xodimning ish qurollari bilan qurollanganligidir” ”[2] deb takidlaydi.

Uning fikricha “korxonaning asosiy kapitaliga nafaqat uskunalar, balki jamiyat a’zolarining foydali qobiliyatları ham kiradi. Ammo ularni sotib olish malum xarajatlarni talab qiladi va bu o‘z navbatida asosiy kapital ko‘rinishida aks etadi. Shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga sarflangan xarajatlar foyda bilan qaytadi”.

U.Petti va A.Smit “insonning foydali qobiliyatlarini asosiy kapital sifatida ishlab chiqdi va undan daromad olish imkoniyatini ko‘rsatib berdi”, degan xulosaga kelish mumkin, bu inson kapitali nazariyasini shakllantirish va yanada rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy inson kapitali nazariysi T. ЙЦuls, G. Bekker, E. Denison, R. Solou, J. Kendrisk, S. Kuznes, S. Fabrikant, I. Fisher, R. Lukas va boshqa iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan”[3].

T. Shuls birinchi bo‘lib inson kapitali nazariysi rivojlanishining boshlang’ich bosqichida inson kapitalini ishlab chiqarish omili sifatida etirof etdi. T. Shuls o‘z navbatida, inson kapitalining turli jihatlarini o‘rgangan bir qator tadqiqotchilardan Irving Fisher va uning The Nature of Capital and Income (1906) asarini va bu asarda kapitalning to‘liq konsepsiyasini shu jumladan inson kapitalini rivojlantirish hamda Adam Smitning mamlakat aholisining qobiliyatini shakllanishini tug’ma va ortirilgan (o‘zlashtirilgan) jihatlari to‘g’risidagi g’oyalarini va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy asarlarini o‘rgandi.

## 2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

Т.Шұлс о‘зининг “Inson kapitali” борасидаги ilmiy tadqiqotlарда “kambag’al” мamlakatlarda аholi farovonligini oshirish үчун yернинг sifatiga, uskunalarнing mavjudligiga emas, balki foydali bilimlar tizimiga e’tibor berish kerakligini та’kidlaydi.

V.B.Bajenovaning umumiy yondashuv sifatida inson kapitaliga integral tavsifi ko‘pchilikka qiziqish uyg’otadi. U inson kapitaliga “mehnat bozorida talab qilinadigan, mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan o‘zida malakaviy tavsiflar; ular, ta’lim darajasi, intellektual salohiyat, bilim, malaka, ishlab chiqarish tajribasi, shuningdek shaxsiy tavsiflari: fiziologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari (sog’liqni saqlash, aqliy qobiliyat, iqtidor, tashabbus) bo‘lib, bular talimning formal va noformal shakllariga, sog’liqni saqlashga xususiy xuddi shuningdek ijtimoiy investisiyalar kiritish orqali shakllanadi, shuningdek shaxsning qobiliyatlarini jamg’arilishi taminlanadi va uning mehnat va mehnatdan keyingi faoliyati davomida egasiga daromad keltirish imkoniga ega” ”[4] deb hisoblaydi.

Ushbu yondashuv quyidagi sabablarga ko‘ra eng mukammal (kompleksli) hisoblanadi: birinchidan, inson kapitali insonning asosiy tarkibiy qismlarini qamrab oladi; ikkinchidan, tadqiq qilinayotgan hodisani tahlil qilish bo‘yicha yaxlit yondashuv g’oyasi metodologiyasi eng katta hajmda amalga oshiriladi; Uchinchidan, tadqiqot ishida inson kapitalini shakllantirishning umumiy shart-sharoitlari va omillari tahlil qilinadi.

Bizning nazarimizda, inson kapitali kategoriyasini tushunishning bunday yondashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy komponentlarning o‘zaro bog’liqligini aks ettiradi, ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning realliklariga, xususan, ishlab chiqarish va iste’molni yangi shakllarining paydo bo‘lishiga yanada ko‘proq javob beradi.

Akademik Q.X.Abdurahmonovning fikricha, “Inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir, Inson kapitali – investisiyalar natijasida shakllangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar zahirasidan iborat bo‘lib, u shaxsning jismoniy, aqliy va psixologik sifatlari hamda qobiliyatlarini aks ettiradi” ”[5].

Iqtisodchi olim A.V.Vahabov esa Agar “kapital” atamasi o‘z egasiga qo‘srimcha qiymat keltiradigan qiymatni bildirsa, unda “inson kapitali”, bizning fikrimizcha bu daromad keltiradigan inson qobiliyatlaridir. Inson kapitalining tayanch asosini inson qobiliyatlarini tashkil etadi” ”[6] deb ta’kidlaydi.

Ammo, shu bilan birga yuqoridagi mualliflar ishlari turli davrda, umumiy holda bajarilgan bo‘lib inson kapitalini va inson resurslari alohida muammo sifatida tanlagan holda chuqr yondashilmagan. Ayni paytda sanoat tarmoqlarida inson resurslari faoliyatini tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida sanoat tarmoqlari iqtisodiyotida inson resurslari o‘rnini oshirish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida sanoatni inson resurslari bilan ta’minlashning yangi yo‘nalishlari va ularning samaradorligini oshirish ma’lumotlari keltirilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstraktmantiqiy fikrlash, taqqoslash, omilli tahlil va qiyosiy tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Korxonalarda inson resurslarini boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ta’sir darajasini tadqiq qilish asosida samaradorlikni oshirish bugungi iqtisodiyot fanining oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Shu boisdan, inson resurslarini boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy iqtisodiy omillarni tadqiq qilamiz. Inson

# 2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

resurslarini boshqarish samaradorligining oshishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ko'rib chiqishdan oldin, omil tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

Qashqadaryo viloyatida yirik sanoat korxonalari soni 31 tani tashkil etib, ushbu korxonalarda qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan: yoqilg'i, yengil, elektrenergetika, kimyo va neft-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, oziq-ovqat va boshqa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan faoliyat ko'rsatadi (1-jadval).

## **Qashqadaryo viloyat sanoat tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan yirik sanoat korxonalari soni<sup>1</sup>**

*1-jadval*

<b>№</b>	<b>Tarmoq mansubligi</b>	<b>Yillar</b>				
		<b>2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>
1.	Elektrenergetika	3	3	3	3	3
2.	Yoqilg'i sanoati	6	6	6	6	6
3.	Metallurgiya	1	1	1	1	1
4.	Kimyo va neft kimyo sanoati	1	1	1	1	1
5.	Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati	1	1	1	1	1
6.	O'rmon, yog' ochni qayta ishlash va qog'oz sanoati	-	-	-	-	-
7.	Qurilish materiallari sanoati	2	2	2	-	-
8.	Yengil sanoat	13	12	12	12	12
9.	Oziq-ovqat sanoati	4	3	3	3	3
10.	Boshqalar	7	6	6	4	4
	<b>Jami</b>	<b>38</b>	<b>35</b>	<b>35</b>	<b>31</b>	<b>31</b>

Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyatida (1-jadval) mavjud yirik sanoat korxonalarining tarmoq mansubligi ifoda etilib, unga muvofiq, elektrenergetika sanoatida 3 ta sanoat korxonasi ("Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati, "Talimapjon GES", "Qarshienergota'mir" mas'uliyati cheklangan jamiyati), yoqilg'i sanoatida 6 ta ("Sho'rtanneftgaz" MChJ, "Gissarneftgaz" QK, "Neftgazmineral" MChJ, "Muborakneftgaz" MChJ, "Muborak GPZ" MChJ va UK "Dehqonobod kalyi o'g'itlari zavodi"), metallurgiya sanoatida 1 ta ("Qarshi ikkilamchi qora metall" MChJ), kimyo va neft kimyo sanoatida 1 ta (Sho'rtangazkimyo majmuasi" MChJ), mashinasozlik va metalnii qayta ishlash sanoatida 1 ta ("Muborak issiqlik elektr markazi" AJ), yengil sanoatda 12 ta ("Cotton road" QK, Qamashi paxta tozalash" AJ, "Beshkent paxta tozalash" AJ, "Koson paxta tozalash" AJ, "Jeynov paxta tozalash" AJ, "Muborak paxta tozalash" AJ, "Nishon paxta tozalash" AJ, "Kasbi paxta tozalash" AJ, "Chiroqchi paxta tozalash" AJ, "Shahrisabz paxta tozalash" AJ, "Oq saroy tekstil" MChJ va "Yakkabog' oq oltin" AJ), oziq-ovqat sanoatida 3 ta ("Qashqadaryo don mahsulotlari" AJ, "Dunyo-M" AJ va "Don halq risqi" AJ) va boshqa sanoat tarmoqlarida 4 ta ("Qarshi yog' ekstraksiya" AJ, "Koson yog'-ekstraksiya" AJ, "Koson don mahsulotlari" AJ, "Shahrisabz vino aroq" AJ) sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan (2-jadval), sanoat tarmog'i mahsulot ishlab chiqarishining nobarqarorligi inson resurslarini boshqarish natijasiga sarflanadigan xarajatlar o'zgarishiga ta'sir

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг 2017-2021 йиллардаги бюллетен тўпламларидан муаллиф хисоб-китоби.

2023: International Conference on Research Identity,  
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

ko'rsatishi mumkin. Masalan, elektrenergetika sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 116,8 foizga ko'paygan davrda, o'rtacha oylik inson resurslarini boshqarish haqi 125 foizga oshgan, mashinasozlik sanoatida tahlilga mos ravishda 121,2 foizga va 108 foizga oshgan, yengil sanoatda 116,9 foizga va 111,2 foizga ko'paygan (3-jadval).

**Qashqadaryo viloyat yirik sanoat tarmoqlarida o'rtacha oylik inson resurslarini boshqarishda miqdori (ming so'm hisobida)**

3-jadval

№	Tarmoq mansubligi	Yillar					2020 yilda 2019 yilga nisbatan, % da
		2017	2018	2019	2020	2021	
1.	Elektrenergetika	509,8	676,7	841,9	942,2	1178,0	125,0
2.	Yoqilg'i sanoati	871,0	1253,4	1459,9	1611,7	1768,5	109,7
3.	Metallurgiya	559,9	664,5	739,0	811,4	929,1	114,5
4.	Kimyo va neft kimyo sanoati	602,7	693,9	857,7	958,1	1114,4	116,3
5.	Mashinasozlik va metalnii qayta ishlash sanoati	865,7	1255,8	1440,9	1736,0	1874,8	108,0
6.	O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va qog'oz sanoati	-	-	-	-	-	-
7.	Qurilish materiallari sanoati	242,3	347,3	390,3	-	-	-
8.	Yengil sanoat	247,1	292,7	408,7	452,6	503,5	111,2
9.	Oziq-ovqat sanoati	228,0	292,3	481,7	657,1	630,5	96,0
10.	Boshqalar	232,5	528,3	671,0	625,4	736,0	117,7
	<b>Yirik sanoat tarmoqlarida o'rtacha oylik inson resurslarini boshqarishda</b>	<b>590,3</b>	<b>840,8</b>	<b>1017,8</b>	<b>1147,6</b>	<b>1314,6</b>	<b>114,6</b>

Mazkur 2-jadval ma'lumotidan ko'rish mumkinki, sanoat tarmoqlarida o'rtacha oylik inson resurslarini boshqarish haqlari yillar davomida oshib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Elektrenergetika sanoatida o'rtacha oylik inson resurslarini boshqarish haqi 2017 yilda o'tgan 2018 yilga nisbatan 132,7 foizga, 2019 yilda 124,4 foiz, 2020 yilda 111,9 foiz va 2021 yilda 125 foizga oshgan bo'lsa, tarmoqda so'nggi 5 yil ichida oylik inson resurslarini boshqarish haqi miqdori 2,3 martaga ko'paygan. Tahlil etilayotgan davrlarga mos ravishda inson resurslarini boshqarish haqi darajasi yoqilg'i sanoatida 2018 yilda 143,9 foizga, 2019 yilda 116,5 foiz, 2020 yilda 110,4 foiz, 2021 yilda 109,7 foizga va umumiy holda 2 barobarga, metallurgiya sanoatida 1,7 martaga, kimyo va neft kimyo sanoatida 1,9 marta, mashinasozlik va metalnii qayta ishlash sanoatida 2,2 marta, yengil sanoatda 2 marta, oziq-ovqat sanoatida 2,8 marta va boshqa sanoat tarmoqlarida 3,2 marta oshgan.

## 2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

Qashqadaryo viloyat yirik sanoat tarmoqlarida band bo‘lgan ishchilarning 52,4 foizi yoki 19258 tasi yoqilg‘i sanoatida inson resurslarini boshqarish qilayotganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu ishchilarning inson resurslarini boshqarish haqi boshqa sanoat tarmog‘idagi ishchilarnikidan o‘rtा hisobda 1,8-2 barobar yuqoridir. Masalan, elektrenergetika sanoatidan 1,5 marta, metallurgiya sanoati 1,9 marta, kimyo va neft kimyo sanoati 1,6 marta, yengil sanoat 3,5 marta, oziq-ovqat sanoati 2,8 marta va boshqalardan 2,4 marta yuqori inson resurslarini boshqarishga haq to‘lanadi.

Inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishga ta’sir qiluvchi iqtisodiy omillar sifatidagi inson resurslarini boshqarish haqi ***bir tomonidan*** iqtisodiy-ishlab chiqarish inson resurslarini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichining ko‘tarilishiga ta’sir ko‘rsatsa, ***ikkinchи tomonidan*** esa, iqtisodiy-ishlab chiqarish natijalari yuqori ijtimoiy natijalarini yaratishi bilan, o‘z navbatida iqtisodiy omillar korxonaning xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyati natijalarining bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun iqtisodiy-ishlab chiqarish va ijtimoiyiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi hamda bog‘liqlik mavjuddir.

Inson resurslarini boshqarish samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi personalning sifat darjasи bevosita ishchi-xizmatchilarning malaka darjasи oshishiga bog‘liq bo‘ladi. Ishchi-xizmatchilar malaka darajasining oshishi ishchilarning inson resurslarini boshqarish sifati oshishida namoyon bo‘ladi. Inson resurslarini boshqarish sifati ishchining inson resurslarini boshqarish samaradorligiga asoslanadi va inson resurslarini boshqarish intensivligi hamda resurslardan unumli foydalanish imkoniyatlarini namoyon etadi.

**Xulosa va takliflar.** Inson resurslarini boshqarish samaradorligini aniqlashda inson resurslarini boshqarish ko‘rsatkichi asosida hisoblash uslubi, natijasi ishonchli bo‘lib, undan foydalanish nihoyatda unumli hisoblanadi va bu qo‘yidagini aniqlash imkonini beradi:

- umumiy inson resurslarini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichi ifoda etmagan ko‘rsatkichlarni ifodalash;
- ishchi inson resurslarini boshqarishining rivojlantirishi inson resurslarini boshqarish natijasiga ta’sir ko‘rsatishini;
- umumiy va xususiy inson resurslarini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlarining o‘zaro uyg‘unligini;
- inson resurslarini boshqarish natijasining samarasiga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlarni yaxlit bir tizimga solgan holda hisoblashni;
- inson resurslarini boshqarish hajmi va inson resurslarini boshqarish sifati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni.

Yuqorida keltirilgan inson resurslarini boshqarish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, inson resurslarini boshqarish samaradorligini aniqlovchi umumiy hisoblash uslubi inson resurslarini boshqarish sifati va sarfini ish hajmiga nisbati asosida aniqlashga yondashadi, xususiy hisoblash ko‘rsatkichlar umumiyl hisoblash uslubidan keskin farq qilib inson resurslarini boshqarish samaradorligini aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24 yanvar 2020 yil.
2. Smit, A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov., - Moskva: Eksmo, 2007. S.117.

2023: International Conference on Research Identity,  
Value and Ethics (USA)  
<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

3. Konstantinov Ilya., Chelovecheskiy kapital i strategiya nasionalnyx proyektov.
4. Bajenova B.C. Nepreryvnoye obrazovaniye v usloviyakh transformatsii ekonomicheskoy sistemy / V.S. Bajenova. - M. : Izd-vo Ros. ekon. akad., 2000.
5. Abdurahmonov, « Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. –T.: Mehnat, 2009. - B.182.».
6. Vahabov A.V “Inson kapitalini investisiyalash amaliyotini takomillashtirish” mavzusidagi BMI, Toshkent 2014 yil.
7. Khidirovich E. R. Application of digital technologies in agriculture. – 2021.
8. Ergashev R. X. Primeneniye sifrovых texnologiy v selskom xozyaystve //development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – s. 911-914.
9. Khidirovich E. R., Bokiyevich K. A. State support for small business and private entrepreneurship in uzbekistan. – 2021.
10. Ergashev, R. K., and A. D. Ravshanov. "Ways of Strategic Development and Increase of Competitiveness of Agricultural Enterprises." *JournalNX*, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 99-105.
11. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Elchiev Javohir Organizational and Economic Mechanisms for Improving Labor Efficiency in Service Enterprises.  
[https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/Vol. 7 \(2021\): Academic Journal of Digital Economics and Stability \(Spain\)](https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/Vol. 7 (2021): Academic Journal of Digital Economics and Stability (Spain))